

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**R.A.Mamajonov**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati ..... 545

**B.A.Pulatov**

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lif-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari ..... 548

**K.I.Marayimova**

Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ..... 552

**N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva**

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentiligini rivojlantirish usullari ..... 557

**D.I.Asqarova**

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari ..... 561

**M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov**

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari ..... 569

**M.Q.Jabborova**

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamонавиғи sifatiga erishish omillari ..... 572

**FALSAFA****A.A.A.Qambarov**

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari ..... 579

**I.M.Arzimatova**

Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'mi ..... 583

**D.E.Normatova**

Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati ..... 588

**I.A.Asatulloev**

Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m'a'naviy hayotining qiyosiy tahlili ..... 593

**T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov**

Korruksiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limi jihatlari ..... 597

**S.S.Evatov**

Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'mi ..... 602

**I.Y.Toirov**

Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarini o'rganish muammolari ..... 606

**A.M.Rasulov**

Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili ..... 610

**A.A.Sayitxonov**

Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'mi ..... 614

**F.A.Yuldashev**

Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests ..... 618

**S.P.Tojiboyev**

Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili ..... 625

**B.X.Mirzraximov, B.T.Shokirov**

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari ..... 631

**M.A.Abduxamidov**

Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlarga munosabatining tahlili ..... 635

**SIYOSAT****J.A.Dadaboyeva**

Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari ..... 638

**A.A.Ganiyev**

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati ..... 643

**TARIX****B.A.Usmonov**

"Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir ..... 648



**BOSHQARUV KADRLARINING AXLOQIY MADANIYATI VA UNGA TA'SIR  
KO'R SATUVCHI OMILLAR TAHLLILI**

**ЭТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА УПРАВЛЯЮЩИХ ПЕРСОНАЛА И АНАЛИЗ ФАКТОРОВ,  
ВЛИЯЮЩИХ НА НЕЕ**

**ETHICAL CULTURE OF MANAGEMENT STAFF AND ANALYSIS OF FACTORS  
INFLUENCING IT**

**Tojiboyev Sarvar Po'latjon o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti

Falsafa va milliy g'oya kafedrasi tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Maqolada Yangi O'zbekiston strategiyasining istiqboli demokratik boshqaruv Institut to'g'risida so'z borgan. Shuningdek, boshqaruv demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat tamoyillari asoslangan. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshiradi. Shuningdek, boshqaruv siyosiy institut sifatida plyuralizmga asoslanadi. Ayniqsa, bu hol demokratik jamiyatda birlamchi manba hisoblanadi. Shu sababli yangi O'zbekistonda boshqaruvning maqsadi «inson va jamiyat farovonligini yuzaga keltirish» sifatida konstitutsiyaviy darajada belgilab qo'yilgan. Uning tayanchi esa uchta: demokratiya, ijtimoiy adolat va qonuniylik. Bu uch tushuncha o'z naybatida boshqaruv xodimlarining mas'uliyatiga asosi bo'ladi.*

**Аннотация**

В статье говорится о перспективе стратегии Нового Узбекистана, института демократического управления. Также управление основано на принципах приверженности демократии и социальной справедливости. Государство осуществляет свою деятельность на основе принципов социальной справедливости и законности, стремясь к благополучию людей и общества. Кроме того, управление как политический институт основано на плюрализме. Это особенно верно в демократическом обществе. Поэтому цель управления в новом Узбекистане закреплена на конституционном уровне как «созидание благополучия человека и общества». Ее основы три: демократия, социальная справедливость и законность. Эти три понятия, в свою очередь, составляют основу обязанностей управленческого персонала.

**Abstract**

*The article talks about the perspective of the New Uzbekistan strategy, the institution of democratic management. Also, management is based on the principles of commitment to democracy and social justice. The state carries out its activities based on the principles of social justice and legality, aiming at the well-being of people and society. Also, governance as a political institution is based on pluralism. This is especially true in a democratic society. Therefore, the purpose of management in the new Uzbekistan is set at the constitutional level as "creating the well-being of man and society". Its basis is three: democracy, social justice and legality. These three concepts, in turn, form the basis of the responsibilities of management personnel.*

**Kalit so'zlar:** ahloqiy madaniyat, farmoyish, byurokratiya, zamonaliv boshqaruv, axborotlar texnologiyasi, huquq, siyosat, ma'naviyat.

**Ключевые слова:** моральная культура, порядок, бюрократия, современный менеджмент, информационные технологии, право, политика, духовность.

**Key words:** moral culture, order, bureaucracy, modern management, information technology, law, politics, spirituality.

**KIRISH**

Boshqaruv tizimini qaror, buyruq, ko'rsatma, farmoyishlarsiz ko'z oldiga keltirish qiyin. Biroq, byurokrat rahbar bu hujjatlar kundalik faoliyat uchun dasturilamal ekanini unutadi va hamma narsaga bir qolip nuqtai nazaridan qaraydi. Vaholanki, hayotda har xil sabablar tufayli paydo bo'ladigan rang-barang muammolarning barchasi hamma vaqt ham ana shu ko'rsatmalarda belgilangan me'yorlarga mos tushavermaydiyu boshqa so'zlar bilan aytganda, me'yoriy hujjatlar rahbar bevosita o'z faoliyati davomida uchrashi mumkin bo'lgan barcha vaziyatlarni aks ettira olmaydi. Bunday vaziyatlarda

rahbardan dadillik, mas'uliyatni bo'yiniga ola bilish, mustaqil ish tuta olish, tashabbuskorlik fazilatlari talab etiladi. Byurokrat rahbar esa bunga qodir emas. Unda masalaga butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, ijodiy yondashish ko'nikmasi yo'q. Shu sababli, u xususiy yechim zarur bo'lgan joyda ham umumiy talabga yopishib oladi yoki xujjat qatlamlaridan o'z harakatsizligi, hech narsa qilmaslik uchun asos izlaydi.

Lekin bunday yondoshuvdan na fuqaro, na davlat manfaat ko'radi. Chunki, buning oqibatida mavjud muammo yechilmasdan qolaveradi. Byurokrat rahbar esa "men masalani kuchim yetganicha hal etdim" deb o'zini ovutadi. Lekin, o'zingiz tasavvur qiling, bunday yondashuv natijasida tuman miqyosida tashvishi hal bo'limgan arizachi viloyatga chopadi. Viloyatda ariza sog'lom firklovchi mulozim qo'liga tushsa-ku, murodi hosil bo'lar. Aksincha bo'lsachi, u yana sarson bo'lib poytaxt sari yuzlanadi. Shu tariqa jamoa xo'jaligi yoki tumandagi tegishli iroda hal etilishi lozim va mumkin bo'lgan muammo poytaxtdagi markaziy idoralargacha yetib boradi. Bunday vaziyatda bir, ikki byurokrat rahbarning o'z vazifasiga sovuqqon munosabati tufayli vujudga keladi.

### MATERIALLAR VA METODLAR

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yangi zamонави boshqaruв kadrlarini tayyorlash ishi obyektiv holatni hisobga oлган holda ilmiy yondoshuvni talab qiladi. O'zbekistonda rahbar kadrlarni tayyorlash jarayoni dasturiy asosga ega bo'lib, uning iqtidorli rahbarlik layoqatiga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlarni tanlash, bilim-saviyasiни oshirish, malakaviy ko'nikmalarini shakllantirish kabi bir qator ishlarning uzluksiz tizimidan iborat.

Bunda bir qancha bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Avvalo, aytish joizki, biron-bir sohani boshqarishga ishonib topshirilgan shaxs zarur kasbiy bilim va malakaga ega bo'lishi, shu soha mutaxassisini bo'lishi zarur.

2. O'zbekiston taraqqiyotining rahbar kadrlarga qo'yayotgan shaxsiy, kasbiy talablari asosida ideal rahbar modelini shakllantirish, uni rahbar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida tadbiq etish. Boshqa so'zlar bilan aytganda, rahbarlik san'ati me'yor va qoidalarni ishlab chiqish.

3. Rahbarlik layoqatiga ega bo'lgan yosh, istiqbolli mutaxassislarni izlab topish, ularga rahbarlik madaniyatidan saboq berish va yo'boshchilik malakalarini oshirib borish.

4. Tinimsiz ravishda rahbar kadrlarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirib borish, buning uchun rahbar kadrlarni tayyorlash jarayoni samaradorligini tahlil etib borish.

5. Rahbar kadrlarni joy-joyiga qo'yish va ularni muntazam ravishda attestatsiyadan o'tkazib borish.

6. Davlat va jamiyatda yuz berayotgan rivojlanish, o'sish va o'zgarishlarga muvofiq tarzda kadrlar siyosatining davr talablaridan kelib chiqib yangi texnologik maqsad va vazifalarni belgilash. Shunday qilib, zamонави rahbar xodimlarni tayyorlash masalasida O'zbekistonda aniq mezonlar ishlab chiqilgan va u amaliyotga tadbiq etilmoqda. Bu mezonlar zamонави boshqaruв usullari va rahbarlikning demokratik tamoyillariga mosdir.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshqaruв kadrlarining axloqiy fazilatlari va iste'dodi quyidagi 19 vazifani bajarishda namoyon bo'лади: 1) bo'y sunuvchilar faoliyatini tashkillashtirish; 2) ishlarni rejalashtirish; 3) qaror qabul qilish; 4) "yuqori"dan axborotni ola bilish; 5) "quyi"dan axborotni ola bilish; 6) ijrochilarni tan olish; 7) bo'y sunuvchilarga talabni qo'ya olish; 8) bo'y sunuvchilar faoliyatini tafakkuriy yo'naltirib turish; 9) bo'y sunuvchilar faoliyatining samaradorligini oshirish; 10) bo'y sunuvchilarga mo'tadil munosabatda bo'la olish; 11) bo'y sunuvchilar bilan hamkorlik qila olish; 12) bo'y sunuvchilarni tarbiyalash; 13) bo'y sunuvchilar bilan muomala qila olish; 14) jazo choralarini qo'llash; 15) rag'batlantirish vositalarini qo'llash; 16) o'zini nazorat qila olish; 17) o'zi ustida ishlash; 18) o'z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo'la olish; 19) o'z faoliyatini baholay olish[1]. Bular qatoriga yana zamon talablarini anglash sifatini qo'shish mumkin.

Bu o'rinda ana shu talab va vazifalarni bajarish bilan rahbarning iste'dodi namoyon bo'lishini ta'kidlash joiz. Chunki, gap ularni qanday bajarishdadir.

Rahbar o'z kasb-kori va ma'naviy ongini yuksaltirish uchun izlanuvchan bo'lishi kerak. Yangilikka intilish, yangilikni qabul qila olish va yangilik yaratish rahbar ma'naviy mas'uliyatining darajasini belgilaydi. Chunki, yangilikka intilmagan rahbar kechagi va bugungi kun bilan yashab qoladi, uning faoliyatida ertangi kun (kelajak) yo'qoladi.

Rahbarlarning izlanuvchanligiga qarab ularni uch guruhga ajratish mumkin: 1) ijobji tiplar - jamoada yaxshi muhitni yaratadilar; 2) salbiy tiplar - jamoada yomon muhitni yaratadilar; 3) oraliqdagi tiplar - jamoada noaniq muhitni yaratadilar[2]. Bundan maqsad shuki, izlanuvchan rahbar

## FALSAFA

jamoia (bo'ysunuvchilar) oldida o'zini mas'uliyatni his etish bilan ajralib turishini ta'kidlashdir. Bundan tashqari, izlanuvchanlik ayni paytda rahbar ma'naviy darajasining nechog'li ekanligini belgilovchi asosiy mezon bo'lib qolmoqda.

Bugungi rahbardan iqtisod, axborotlar texnologiyasi, huquq, siyosat va ma'naviyat ilmlaridan xabardorlik talab qilinmoqda. Chunki bizda yangi iqtisodiy munosabatlar (iqtisod), ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik qilish (axborot texnologiyasi), milliy davlatchilik (huquq), yangi jamiyat (siyosat) va yangi davr Shaxsini (ma'naviyat) shakllantirish va barpo etish ishlari ketmoqda. Bu zamonaviy bilimlilik mazmunini ifodalaydi. Demak, zamonaviy bilimlilik o'z davri ehtiyojlariaga mos bilimlarni chuqur o'rganib, mavjud muammolarni hal etishdir.

Rahbar o'z mutaxassisligini chuqur bilishdan tashqari, boshqarish san'atini yaxshi egallashi kerak. Bu borada u kasbini bilishi, zamonni anglashi va ijtimoiy faol bo'lishi bilan boshqalarga o'mak bo'lishi shart.

Rahbar har bir masalada o'z so'zi, fikri va qarashiga ega bo'lishi lozim. Muayyan masalada o'zi anglab yetgan so'zni gapirishi, o'zi anglagan fikrni bildirishi va masala yechimiga doir qarashini aytishi kerak. To'g'ri-noto'g'ri xulosalardan iborat umumiy gaplarni to'tiqushdek takrorlashdan tiyilishi shart. Odamlardagi boqimandalik, tanballik ruhi, mehnat jarayoniga katta ta'sir o'tkazadi, buning oqibatida, odamlarning bir qismi ilgarilab ketishi, ikkinchi qismi orqada qolib ketishi sodir bo'ladi. Bu ham rahbar xodimlar uchun yangi muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning pirovard natijasiga erishish, boshlangan ishlarni oxiriga yetkazish, odamlarda yangicha dunyoqarash shakllantirish, oldimizda turgan vazifalarning o'zagini tashkil qiladi.

Eskicha fikr yuritish, eskicha tafakkur tarzida bo'lgan rahbarlarning mavjudligi islohotlarning boshlanish davrida unchalik sezilmagan bo'lsa, islohotlar qanchalik chuqurlashib borgan sari, jamiyatdagi ijtimoiy qarashlar yangilanish tomonga siljigan sari, odamlarni boshqarish uchun yangicha dunyoqarash zarurati sezila boshlandi. Shunday qilib, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilish rahbar xodimlar ma'naviy mas'uliyatini oshirish vositasida kechadi. Korxona rahbarlari, umuman, rahbar xodimlarning ma'naviy mas'uliyati oshirilsa ushbu muvaffaqiyatlarga erishish mumkin:

1. Boshqaruv usullarini qonuniylik asosida demokratlashtirib borish;
2. Korxonalarda ma'muriy buyruqbozlik boshqaruvi o'miga jamoa boshqaruvini joriy qilish.
3. Rahbar xodimlarning boshqaruvda ma'naviy mas'uliyatini oshirish. Zero, bu ishlarning barchasi yangilanishlarni izchil olib borishni taqozo etadi.

Yaxshilikning kundalik oddiy tushunchasidan tashqari axloqshunoslik fanining kategoriyasi sifatidagi ta'rifi ham mavjud. Masalan, A.A.Radugin "Yaxshilik – bu jamiyat va individ hayoti uchun juda zarur va foydali deb baholangan narsalardir. Yaxshilik bu jamiyat va individning yashashi, rivojlanishi, huzur-halovati, uyg'unligi va takomillikka erishishi uchun zarur bo'lgan narsalarning barchasidir"[2], A.A.Guseynov va R.G.Apresyanlar "Yaxshilik – bu bir tomonidan insonga yoqadigan va foydali, o'zi va boshqalar uchun qadrlanadigan ish bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zgalar uchun emas o'zi uchun qadrl bo'lgan ish, hatti-harakatdir"[3], degan fikrni bildiradilar. N.E.Muhammadiev "Yaxshilik deb tevarak-atrofda sodir bo'layotgan hamma voqeja, hodisa va vujudga kelayotgan narsalarning insonni e'zozlaydigan, uning manfaat va ehtiyojlarini qondiradigan, axloqiy ideallarga mos keladigan odamgarchilikning o'sishini har tomonlama ta'minlaydigan, pirovardida baxtli hayot kechirishiga xizmat qiladigan barcha ijobjiy tomonlarining yig'indisiga aytildi"[4], deb ta'rif beradi.

Bugun ayrim rahbarlarimizda strategik maqsadlarni ko'ra olish yetishmaydi. Ular o'zi rahbarlik qilayotgan, boshqarayotgan sohaning ertangi kunini tasavvur qila olmaydilar. Ular faoliyatiga nazar tashlasangiz, faqat bugungi kun vazifalariga o'ralashib qolish ko'zga tashlanadi. Rahbar tom ma'nodagi yetakchi bo'lishi uchun oshkora, demokratik tarzda va o'zgalarga ishongan holda ishlashi kerak. Kuchli rahbar o'zganining maslahatiga quloq tuta oladi va bu bilan hech kim daxl qila olmaydigan yetakchiga aylanadi. Natijada, ertangi kun muammolarining bugun oldini olish imkonи kelib chiqadi. Tashabbuskor rahbar yonib, zavq bilan yashaydi va ishlaydi. Rahbarning tashabbuskorligi uch narsada bilinadi: odamlarni birlashtirish, ularni boshqarish va safarbar etish. Birlik yo'q joyda baraka va ishda unum bo'lmaydi. Boshqaruv (uyushtiruvchanlik) zaif bo'lsa, tartib intizomga putur yetadi. Safarbarlik bo'limasa, yaratuvchanlik bo'lmaydi.

Odamlar birlashsa, yo'naltirib turilsa va safarbar etilsa jamiyat farovonlikka yuz tutadi. Odamlarda yashash va ishlashga ishtiyoq tug'iladi. Ruhi ohorlanib, yangilanish ro'y beradi. Ijtimoiy muammo va illatlar kamayadi. Bularning barchasi rahbarning yonishiga, ya'ni tashabbuskorligiga

bog'liq. Tashabbusi yo'q rahbar avval o'zi so'nadi, keyin o'zgalarni so'ndiradi. Fojeaning ildizi mana shundadir. Zamonaviy rahbar mas'uliyatini ana shu professionallik bilan ham belgilanadi. Rahbar professional bo'lishi shart. Aks holda u odamlarni zamon talablariga mos xarakterda va intizomda saqlay olmaydi. Bizning ayrim rahbarlarimizda ba'zan professionalizm yetishmayapti.

Professionalizm vaziyatni aniq va to'g'ri baholay olishdan boshlanadi. Buning uchun rahbar odam o'z hududidagi korxonasiyagi kishilarning ahvoli, o'y-xayoli, intilishi, muammosi va tur mush tarziga e'tibor berishi, o'rganishi kerak. Turli sog'lom kuchlar ko'magida muammolarni aniqlab, ularni hal etishning ta'sirchan choralarini ko'rishi zarur. Befarqlik, hafsalasizlik, uquvsizlik, o'zni bilimdon hisoblash professionalizmning dushmanidir. Kimki professional rahbar bo'lmasa, u safdan chiqib qolishi aniq. Bu zamonaviy rahbar xodimlar tayyorlashdagi mas'uliyat mezoniga kiruvchi eng muhim masalalardan bo'lib, uni shaxs bo'lib shakllanishida asosiy mezon deb tushunish mumkin. Rahbarning yetuk, zamon talablariga mos shaxs ekanligi o'z atrofida kuchli kadrlarni yig'ish bilan belgilanadi.

Ba'zi rahbarlar o'z saviyasidan past kishilarni atrofiga yig'adi. Xushomadgo'y va laganbardor bu guruh bir kun kelib rahbar shaxsiga putur yetkazadi. Aksincha, yetuk shaxs bo'lgan rahbar kuchli kishilarni atrofida to'playdi. Kuchli kishilar o'z rahbarining o'miga, amaliga emas, aqliga qarab, oldiga qo'yilgan topshiriqlarni bajarib rahbariga shuhrat-obro' keltiradi. Shu ma'noda professional kadrlar zahirasini shakllantirishda uch masalaga e'tibor berish lozim: o'qitish, tarbiyalash va doimiy ravishda malakasini oshira borish. Bu uch masala zukkolik bilan hal qilinsa, talab darajasidagi kadrlar zahirasini shakllanadi. Bunda rahbar haqiqatdan ham o'zining yetuk Shaxs ekanligini namoyon qila oladi.

Xodimlarning axloqiy yuksakligi zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatining muhim sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Bunga erishish uchun, avvalo, rahbarning ijtimoiy – axloqiy tayyorgarligi zarur. Boshqaruv odobining mohiyati ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning barcha ishtirokchilari xulq – atvori tamoyil va me'yorlarini asoslashdir.

Boshqaruv odobi ma'muriy va xo'jalik faoliyatini sifatlari ado etishga yo'naltirilgan nazariy-amaliy etika bilimlari va amaliy tavsiyalar tizimidan iboratdir. Ijtimoiy adolat, shaxs erkinligi, kasbiy pokizalik, mas'uliyatni his qilish, tabiatni avaylab asrash uning asosiy tamoyillari hisoblanadi. Boshqaruv odobida axloqiy tavsiyadagi, shaxs xulq – atvori o'rganish bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar, boshqaruv faoliyatiga nisbatan axloqiy talablar, ishga aloqador axloqiy qoidalar va ishlanmalar hamda rahbarning xizmatidan tashqari xulqi, muomala odobi bo'yicha maslahatlar muhim o'rinnegallaydi.

Boshqaruv kadrlarining asosiy axloqiy qoidalar quyidagilar:

- kamtar bo'lish;
- qo'l ostidagilar bilan hushmuomala bo'lish;
- odamlarga keng ko'lamda o'z foydaliligini namoyon etish uchun hokimiyatga intilish;
- o'z xodimlarini boshqaruv faoliyatida qatnashish uchun faol jalb etish;
- foydalni tanqidni samimiy qabul qilish va jamoat fikrini hurmat qilish;
- qo'l ostidagilarga ishongan holda munosabatga moyillik, ularni o'z hamfikrlari deb bilish.

Axloqiy barkamollik rahbarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi. Axloqiy barkamol insonlar axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etadi. Rahbarlik – mas'uliyatli vazifa. Uni sharaf bilan ado etmoq uchun, kishi o'zi rahbarlik qiladigan sohani bilishigina emas, balki yana bir qator sifat va fazilatlarga ega bo'lmoq'i kerak.

Ular ichida avvalo,

1. Til va nutq

2. Izlanish. Yangilikka intilish va har bir yangilikni amaliyotga tatbiq etish izlanuvchanlikdir. Rahbar shaxsning izlanuvchanligi o'z malakasi va tajribasini oshirib berishda ko'rindi. Tashabbuskorlik – izlanuvchanlik samarasidir. Yangilikka o'ch rahbar shaxs tashabbuskor bo'ladi va o'z ishini qoniqarli bajaradi.

Zamonaviy bilimlilik. Kishi o'zi yashaydigan davrning eng ilg'or tushunchalarini o'zlashtirsa, zamonaviy bilimga ega bo'ladi. Rahbar shaxsning zamonaviy bilimga egaligi esa hozirgi zamon boshqaruv sirlarini bilishi, siyosiy onglilik va dunyoviy taraqqiyotni anglashi bilan belgilanadi.

1. Vatanparvarlik. Inson o'z yurtini sevsan vatanparvar hisoblanadi. Rahbar shaxs esa o'z Vatanini sevishidan tashqari, uning taraqqiyotini ta'minlashi kerak. Kechani kecha, kunduzni kunduz demay o'z xalqiga xizmatini qilish rahbar shaxs uchun vatanparvarlikdir.

## FALSAFA

2. Yurtga sadoqat. Odam o'z yurtini obod qilsa, yurtiga sadoqatli hisoblanadi. Rahbar shaxs esa yurt istiqbolini belgilovchi izchil dasturlarni bajarishi, hayotni farovon qilishi va o'zgalarning og'irini yengil qilish bilan o'z yurtiga sadoqatini namoyon qiladi.

3. Fidoyilik. Biror kishi ulug' maqsad sari qat'i harakat qilsa fidoyilik qilgan bo'ladi. Rahbar shaxs esa Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlash bilan fidoyiligidini namoyish etadi. Bugungi kun rahbari har bir ishda oldingi safda bo'lsagina fidoyi hisoblanadi.

4. O'z kasbining ustasi. Har kim tanlagan kasbini puxta bilsa, kasbining ustasi hisoblanadi. Rahbar shaxsning professionalligi deganda esa o'z kasbini so'nggi yutuqlarigacha bilishi bilan birga, boshqaruv sirlarini qat'i o'zlashtirishni ham tushunish kerak.

Mustaqil dunyoqarash. Muayyan masalada o'z fikriga ega bo'lismustaqil dunyoqarashni bildiradi. Rahbar shaxs esa —keng fikrashi, uzoqni ko'ra bilishi qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turadi va bu uning mustaqil dunyoqarashga egaligidir.

1. Iymon-e'tiqodli. Insonning o'zi ishongan narsaga ixlos qilishi iymon-e'tiqoddir. Rahbar shaxs esa bugun va ertani ko'zlab, zamon muammolarini hal qila bilishi hamda mustahkam irodaga ega bo'lismustaqil dunyoqarashga hisoblanadi.

2. Inson bo'lishi. Kishi yuksak insoniy axloqqa ega bo'lsa, yaxshi kishi hisoblanadi. Rahbar shaxs esa —atrofidagi uni o'rabi oladigan xushomadgo'y, lagabardor, labbaychilarning maqtovidan o'zini saqlab o'ta olsa chinakam insoniyligini namoyon qiladi.

3. Rahbar shaxs ma'naviyatini tashkil qiluvchi bu fazilatlardan tashqari yana insonga xos illatlar ham bor. Ular rahbar shaxs ma'naviyatini shakkantirishga to'siq bo'lmoqda. Misol uchun, professor E.G'oziyev ana shunday illatlardan quyidagi o'n beshtasini ko'rsatib o'tadi:

1. O'zini-o'zi boshqara olmaslik.
2. Shaxsiy qadriyatlardan putur ketishi.
3. Shaxsiy maqsadning noaniqligi.
4. O'zini-o'zi kamol toptirishning izdan chiqqanligi.
5. Muammolarni hal qilish malakalarining yetishmasligi.
6. Ijodiy yondashuvda nuqsonlarning mavjudligi.
7. Odamlarga ta'sir o'tkaza olmaslik.
8. Boshqaruv faoliyati xususiyatlarini yetarli darajada tushunmaslik.
9. Rahbarlik qilish malakalarining zaifligi.
10. Boshqalami o'qitish, ularga saboq berish, o'rgatish uquvining yo'qligi.
11. Mehnat jamoasini jipslashtirish qobiliyatining pastligi.
12. Yangiliklar bilan o'zgalar e'tiborini jalb qilishga uquvsizlik.
13. Odamlar bilan muomala qilish madaniyatining yo'qligi.
14. Aql va farosat bobida sustkashlik.
15. Ishbilarmalik qobiliyatining kuchsizligi[4].

Mamlakatimiz o'z taraqqiyoti yo'lida yangi ufqlar va maqsadlarga intilayotgan, jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar yangi bosqichga ko'tarilayotgan bir paytda, eng avvalo, rahbarlarning o'z vazifasini halol va malakali bajarishga, qolaversa, fidoyiligidagi ko'p narsa bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

## XULOSA

Xulosa qilganda, boshqaruv kadrlarining shaxsiy sifatlari, fazilatlari ular yashagan, tarbiyalangan makon va zamonda shakkantirish uchun ajoyib imkoniyatlar mavjud. O'zgarayotgan ijtimoiy muhit, ish uslubi, rahbarlik tarzi, talablari yangi tipdagi davlat mulozimlari, rahbar kadrlarni tarbiyalash uchun zarur bo'lgan obyektiv shart-sharoitni yaratdi. Galdagi vazifa boshqaruv kadrlariga qo'yilayotgan yangi talablarni, ular uchun zarur bo'lgan fazilatlarni ilmiy asoslab, tahlil etib, umumlashtirib, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, amaliy tajriba yordamida maxsus shakkantirishdir. Ana shunda boshqaruv kadrlari tafakkuridagi yangilanish ular orqali xalqqa, demakki, har bir o'zbekistonlikka yetib boradi. Jamiyat tafakkuri tezroq yangilanadi, millat bir jonu bir tan bo'lib, islohotlarni tezlashtiradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бойко В.В., Ковалёв А.Г., Панферов В.Н. Социально-психологический климат коллектива и личность. - М.: Мысль, 1983. -С. 178-187. ( Boyko V.V., Kovalev A.G., Panferov V.N. Socio-psychological climate of the team and personality. - M.: Mysl, 1983. -S. 178-187.)

2. Бойко В.В., Ковалёв А.Г., Панферов В.Н. Социально-психологический климат коллектива и личность. - М.: Мысль, 1983. С. 139.( Boyko V.V., Kovalev A.G., Panferov V.N. Socio-psychological climate of the team and personality. - M.: Mysl, 1983. P. 139.)
3. Радугин А.А. Этика. -М.: Центр, 2003. -С.110.( Radugin A.A. Ethics. -M.: Center, 2003. -P.110)
4. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика. – М.: Гардарики, 2004. –С.241.( Guseinov A.A., Apresyan R.G. Ethics. – M.: Gardariki, 2004. – P.241.)
5. Мухаммадиев Н.Э. Ички ишлар идоралари ходимларининг касб этикаси ва эстетик маданияти. Тошкент-Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998. -Б. 92-93 .( Muhammadiev N.E. Professional ethics and aesthetic culture of employees of internal affairs agencies. Tashkent: Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 1998. -B. 92-93.)
6. Гозиев Э. Раҳбар фаолиятидаги нуқсонларни бартараф этиш. // —Халқ таълимий журнали, 2000. № 3. -Б. 18-23. (Goziev E. Elimination of defects in the leader's activity. // —Public Education magazine, 2000. No. 3. -B. 18-23.)